

U'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo
vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi
tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro
akkreditatsiya idorasidan akkreditatsiyadan o'tkazish
bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibiga oid

USLUBIY QO'LLANMA

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiya idorasidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiya idoralaridan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibini yoritishga qaratilgan. Xalqaro akkreditatsiya tizimiga qo'shilish muvofiqlikni baholash organlari faoliyatining ishonchliliigi va xalqaro tan olinishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qo'llanmada akkreditatsiya xarajatlarini qoplashning huquqiy asoslari, amaliy tartibi va mexanizmlari bayon etilgan bo'lib, u muvofiqlikni baholash organlari, davlat idoralari va manfaatdor tashkilotlar uchun amaliy yordam sifatida xizmat qiladi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

KIRISH

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda milliy mahsulot va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu jarayonda muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiyadan oʻtkazish hamda ularning faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish eksportni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xalqaro akkreditatsiya tizimiga qoʻshilish orqali milliy muvofiqlikni baholash organlarining qarorlari boshqa mamlakatlarda ham tan olinadi, bu esa tadbirkorlar uchun qoʻshimcha xarajatlarni kamaytiradi va mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqishini yengillashtiradi. Shu maqsadda davlat tomonidan akkreditatsiya bilan bogʻliq xarajatlarni qoplab berish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur oʻquv qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni ragʻbatlantirish agentligi tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiya idoralaridan akkreditatsiyadan oʻtkazish bilan bogʻliq xarajatlarni qoplab berish tartibini yoritadi hamda amaliy koʻrsatmalar beradi. Qoʻllanma muvofiqlikni baholash organlari, eksport faoliyatida ishtirok etuvchi tadbirkorlik subyektlari va manfaatdor tashkilotlar uchun amaliy yordam sifatida moʻljallangan.

UMUMIY TUSHUNCHALAR

-  **akkreditatsiya** — muvofiqlikni baholash organining muayyan akkreditatsiya doirasida muvofiqlikni baholash ishlarini bajarishga vakolatining akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlanishi;
-  **akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar** — akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonida hujjatlar ekspertizasi hamda joyida baholash uchun sarflanadigan xarajatlar;
-  **muvofiqlikni baholash organi** — O'zbekiston Respublikasi rezidenti — yuridik shaxs bo'lgan, muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organi, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotlar, xizmatlar, menejment tizimlari hamda xodimlarni sertifikatlash organi;
-  **ILAC (International Laboratory Accreditation Cooperation)** — Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot;
-  **IAF (International Accreditation Forum)** — Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forum.



Muvofiqlikni baholash organlarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berishning asosiy sharti nimadan iborat?

Agentlik tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a'zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berishning asosiy sharti ushbu muvofiqlikni baholash organlarining xalqaro standartlar talablari asosida xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligidir.

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish uchun taqdim etiladigan hujjatlar



Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish uchun muvofiqlikni baholash organi Agentlikka qanday shakllardagi hujjatlarni va qanday tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim?

Muvofiqlikni baholash organi Agentlikka Nizomning 2 va 3-ilovalarida keltirilgan shakllarga muvofiq ariza va buyurtmanoma-anketani, shuningdek, akkreditatsiya guvohnomasining amal qilish muddatida o'tkazilgan davriy baholashlar natijalari (agar mavjud

bo'lsa) va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish uchun sarflangan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar (shartnoma, hisob-faktura, dalolatnoma, to'lov

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan muvofiqlikni baholash organi ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlarni Agentlikka qanday usullarda taqdim etishi mumkin?

Ariza va hujjatlar Agentlikka:

- bevosita,
- pochta aloqasi orqali yoki
- elektron shaklda, jumladan, **Agentlikning veb-sayti orqali taqdim etilishi mumkin;**

Agar xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan muvofiqlikni baholash organi ariza va hujjatlarni bevosita Agentlikka topshirsa, ariza topshiruvchiga qanday hujjat taqdim etiladi?

Arizaning nusxasi hujjatlar qabul qilingan sana belgisi bilan ariza topshiruvchiga darhol beriladi;

TAQDIM ETILGAN HUJJATLARNING ISHONCHLILIGI UCHUN KIM JAVOBGAR HISOBLANADI?

Taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi uchun xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan muvofiqlikni baholash organi javobgar hisoblanadi.



Agentlik muvofiqlikni baholash organining arizasi va unga ilova qilinadigan hujjatlarni ariza qabul qilingan kundan boshlab qancha muddat davomida ko'rib chiqadi?

7 ish kuni davomida ko'rib chiqadi.



Agentlik taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishda qaysi mezonlarga e'tibor beradi?

Hujjatlar va ulardagi ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi, xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish shartlari va maqsadlariga hamda xarajatlarni qoplab berish miqdorining Nizomda belgilangan miqdorlarga muvofiqligi nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish to'g'risidagi qarorni qabul qilish tartibi qanday?

Qarorni Agentlik qabul qiladi va **1 ish kuni davomida pochta aloqasi** yoki **elektron shaklda**, shu jumladan, **rasmiy veb-sayti orqali** bildirishnoma yuboradi. Hujjatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun yig'im undirilmaydi.

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish to'g'risida qaror qabul qilinganda, to'lovlar qanday muddatda va kim tomonidan amalga oshiriladi?

To'lovlar Agentlik tomonidan qaror qabul qilingan kundan boshlab **5 ish kuni ichida** muvofiqlikni baholash organining bank hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

Agar muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiyasi amal qilish muddatida bekor qilinsa, kelgusida ushbu organga qanday cheklov qo'llaniladi?

Akkreditatsiyasi bekor qilingan muvofiqlikni baholash organiga kelgusida xalqaro

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish miqdori va shartlari

✓ Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar muvofiqlikni baholash organiga qanday tartibda va qanday miqdorda qoplab beriladi?

Xarajatlar muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya doirasi to'g'risidagi ma'lumotnomasida aks ettirilgan, aniqlangan tavsiflar (parametrlar) yoki amalga oshiriladigan ishlarning har bir birligi uchun ekvivalentda 200 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, haqiqatan aniqlangan xarajatlar asosida milliy valyutada qoplab beriladi.

✓ Xorijiy valyutada amalga oshirilgan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar qaysi kurs bo'yicha milliy valyutada hisoblanadi?

Xorijiy valyutadagi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar miqdori muvofiqlikni baholash organi to'lovlarni amalga oshirgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada hisoblanadi.

Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berishni rad etish tartibi

✓ Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berishni rad etish uchun qanday asoslar mavjud?

- 1) belgilangan hujjatlar to'liq hajmda taqdim etilmagan bo'lsa;
- 2) so'ralayotgan xarajatlar Nizomda belgilangan tartib va talablarga nomuvofiq bo'lsa;
- 3) akkreditatsiya amal qilish muddatida bekor qilingan bo'lsa;
- 4) taqdim etilgan hujjatlarda noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lsa.

✓ Rad etish uchun asoslar mavjud bo'lsa, Agentlik qanday tartibda xabar beradi?

Agentlik **1 ish kuni davomida** mansabdor shaxslar tomonidan imzolangan yoki E-imzo bilan imzolangan asosli xulosani, rad etish sabablari va hujjatlarni qayta topshirish muddati ko'rsatilgan holda yuboradi.

✓ **Muvofiqlikni baholash organi rad etish sabablarini bartaraf etganda, necha kun ichida hujjatlarni qayta topshirish huquqiga ega?**

10 ish kunida hujjatlarni va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni qayta topshirish huquqiga ega.

✓ **Rad etish sabablari bartaraf etilib, ariza qayta topshirilganda, Agentlik uni nechta ish kuni ichida qayta ko'rib chiqadi?**

3 ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda qayta ko'rib chiqiladi.

✓ **Qayta ko'rib chiqishda avval yozma ravishda ko'rsatilmagan yangi rad etish sabablari ko'rsatilishi mumkinmi?**

Yo'q, yangi sabablarga yo'l qo'yilmaydi, faqat avval ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq bo'lsa bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag'lar ajratish va ulardan foydalanish tartibi

✓ Belgilangan muddatdan kech berilgan hujjatlar qanday ko'rib chiqiladi?

Belgilangan muddatdan kech berilgan hujjatlar **yangi topshirilgan deb** hisoblanadi va umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

✓ Har bir moliyaviy yil boshida Agentlikni moliyalashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi Prezidentning 2018-yil 20-dekabrda PQ-4069-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan smeta asosida Agentlikning buyurtmanomasi olingan kundan boshlab 3 bank ish kuni ichida Agentlikni moliyalashtiradi.

YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- ✓ **Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlari qoplab berilgan muvofiqlikni baholash organlarining reyestri qanday yuritiladi?**

Bu reyestr Agentlik tomonidan **elektron** shaklda yuritiladi.

- ✓ **Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish uchun kim javobgar hisoblanadi?**

Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish uchun javobgarlik Agentlikka yuklanadi.

ILOVALAR
Muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish
bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish
SXEMASI

Bosqichlar	Mas'ul ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Muvofiqlikni baholash organi	Ariza, buyurtmanoma-anketa va boshqa belgilangan hujjatlarni tayyorlash hamda to'g'ridan to'g'ri, pochta aloqasi vositasi orqali yoki elektron shaklda, shu jumladan, Eksportni rag'batlantirish agentligining veb-sayti orqali taqdim etish.	Muvofiqlikni baholash organining ixtiyoriga ko'ra



**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi 4337-son “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” gi qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda 4069-son “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 826-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida ”gi qarori	

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo
vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi
tomonidan muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro
akkreditatsiya idorasidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan
bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibiga oid
Uslubiy qo'llanma**

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.